

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI TOSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH TARIXI VA TAJRIBASI

Bozorova Shoira Alisher qizi

Termiz davlat universiteti Fizika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD) tomonidan asos solingan o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish darajasini keng qamovli baholash dasturi PISA (the Programme for International Student Assessment) va uning natijalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, TALIS, umumta'lism maktabi, o'quvchi, baholash, qaror, qonun.

Kirish: Butun dunyo mamlakatlari bugun jadallik bilan rivojlanib taraqqiy etib borayotgan asrimizda o'zining katta e'tiborini ta'lim sifatini oshirishga qaratmoqda. Shu bilan bir qatorda olingen bilimlarni kelgusida qo'llay olish ham ahamiyatlidir. Bu borada so'nggi yillarda ta'lim sifatini oshiruvchilarni va baholovchi ko'plab dasturlardan foydalanilmoqda. PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, TALIS shular jumlasidandir. Quyida keltirilgan xalqaro baholash dasturlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

PISA (Programme for International Student Assessment) halqasi baholash dasturiga OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan 1997-yilda asos solingan bo'lib, 15 yoshli o'quvchilarning matematika, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini hamda real hayotdagi vaziyatlarda ularni qo'llash qobiliyatini baholaydi. Har 3 yilda bir marta(2000-yildan beri) PISA sinovlari o'tkaziladi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) ga IEA (Xalqaro Ta'lim yutuqlarini baholash assotsiatsiyasi) tomonidan asos solingan bo'lib 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholaydi. Har 5 yilda bir marta(2001-yildan beri) PIRLS sinovlari o'tkaziladi.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) bu baholash dasturiga ham IEA tashkiloti asos solgan bo'lib 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim darajasini baholaydi. Har 4 yilda bir marta (1995-yildan beri) o'tkazilib kelinmoqda.

ICILS (International Computer and Information Literacy Study) O'quvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha savodxonligini va ularni foydalanish qobiliyatini baholovchi dasturiga topshiriqlari har 5 yilda bir marta (2013-yildan beri) o'tkazilib kelinmoqda. Bu baholash dasturiga ham IEA tashkiloti asos solgan.

TALIS (Teaching and Learning International Survey) O‘qituvchilar va maktab rahbarlarining ish sharoitlari va o‘quv jarayoni haqidagi fikrlarini o‘rganadi. Har 5 yilda bir marta (2008-yildan beri) o’tkazilib kelinayotgan bu dasturga esa OECD tashkiloti asos solgan.

Ushbu dasturlar mamlakatlarning ta’lim tizimlarini tahlil qilish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Dunyoda sifatli ta’lim berish va ta’lim sifatini yangi bosqishga olib chiqish dolzarb muammo muammo bo’lib qolmoqda. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development) o‘quvchilarning bilimi va bilganlari bilan nima qila olishlarini o‘rganish, ta’lim natijalarining sifati va tengligini taqqoslash, boshqa mamlakatlarda qo‘llaniladigan siyosat va amaliyotlarni o‘rganish orqali ta’lim sohasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradigan keng qamrovli xalqaro baholash PISA (The Programme for International Student Assessment) tadqiqotlarini olib bormoqda [1].

PISA dasturining joriy qilinish quyidagicha amalga oshirilgan:

1997 yil – PISA dasturining rasmiy ravishda joriy etilishi. OECD ta’lim sohasidagi xalqaro tahlillarni amalga oshirish uchun dastlabki reja ishlab chiqdi. PISA dasturini tashkil etish, o‘quvchilarning ta’limdagi natijalarini taqqoslash va ta’lim tizimlarini baholash maqsadida boshlandi.

2000 yil – PISA dasturi birinchi marta amalga oshirildi. U o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini, ya’ni o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini o‘lchashga qaratilgan edi. Birinchi tsikl (2000) o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini real hayotdagi vaziyatlarda qanday qo‘llashlarini aniqlashga yo‘naltirildi.

2003 yil – Ikkinci tsikl bo‘lib, unda matematik savodxonlikka (matematikada o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari) alohida e’tibor qaratildi. Bu tsikl o‘quvchilarning matematik masalalarni hal qilish qobiliyatini baholashga asoslandi.

2006 yil – Uchinchi tsikl ilmiy savodxonlikka (tabiiy fanlar va ilmiy bilimlar) qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ilmiy bilimlari va tabiiy fanlar bo‘yicha ko‘nikmalarini baholandi.

2009 yil – O‘qish va matematikadan tashqari, yangi yo‘nalishlar kiritildi. Ushbu tsikl o‘quvchilarning global muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘lchashga e’tibor qaratildi.

2012 yil va keyingi yillar – PISA dasturida o‘quvchilarning raqamli savodxonligi, ijtimoiy bilimlari va boshqa ko‘nikmalari ham o‘lchandi. Boshqa yillar davomida turli fanlar (o‘qish, matematika, ilm-fan) va o‘quvchilarning umumiy ko‘nikmalari tahlil qilindi [2].

Ushbu dastur asosan 15 yoshli o‘quvchi yoshlar o‘rtasida olib borilishining asosini organizhdan avval dunyo mamlakatlarida ta’limning qaysi tarmoq va yosh

doiralariga katta e'tiborini qaratayotganini ko'rib chiqishimiz zarur. Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari, Singapur, Shveysariya, Kanada, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi yirik mintaqalarda asosan oliy ta'lif tizimi jadallik bilan taraqqiy etgan. Barcha jabhalarda sifatli oliy ma'lumotli kadrlar o'z faoliyatini olib bormoqda. Buning aksini o'laroq Germaniya, Janubiy Koreya,

Fransiya, Yaponiya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya kabi davatlarda esa boshlang'ich ta'lif yoki soddaroq aytganda maktabgacha ta'lif tizimi jadallik bilan rivojlanib bu hududlarda 1-6 yosh bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga, qobiliyatlarni rivojlantirish va bilimlarning asoslarini shakllantirish, bolalarning o'z-o'zini anglash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan zaruriy ishlar olib borilmoqda. Islomiy tizimga asoslangan mamlakat va mintaqalarda esa hattoki bolalarga ilk go'daklik vaqtidanoq ta'lif berish zarur deb qaralmoqda. Endi yana yuqoridagi gapimizni qaytdigan bo'lsak ta'lifning bir bosqichi ya'ni umumiyligi o'rta ta'lif tizimi ham bor bu tizim o'quvchi yoshlarga harf orgatishdan boshlanib ularga o'rtacha bilim berish bilan yakun topadi. Dunyo mamlakatlarining katta qismi umumiyligi o'rta ta'lif bilan ta'minlangan bo'lib umum-ta'lifni tamomlagan o'quvchi ta'lif olishni davom ettirish yoki boshqa sohada davom etishi mumkin(barchada ham oliy ta'lifda o'qish va ta'lifnidavom ettirishimkoni mavjud emas). Shuni e'tiborga olgan holda umumta'lif maktabining tamomlagan o'quvchi shu tizimda olgan bilimini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi juda muhim ahamiyatga egadir. Bu PISA ning asosiy mazmuni va maqsadi bo'lib hizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'lifi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. 2023-yil 1-yanvardan e'tiboran Maktabgacha va maktab ta'lifi tasavvufida o'z faoliyatini davom ettirmoqda [3].

2. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quydagilar belgilansin:

xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

ta'lif tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

ta'lif sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

ta'lif sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

ta’lim sifatini baholash bo‘yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sон Farmoniga muvofiq:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagilar nazarda tutilsin:

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahoning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish [4].

Ushbu qonun va farmonlarni inobatga olgan holda 2022-yil o‘tkazilgan PISA sinovlarida O‘zbekiston yoshlari ham ilk marotaba ishtirok etdi. 2022-yil tadqiqot natijalariga ko‘ra tadqiqotda 81ta mamlakat va hududdan 690mingdan ortiq 15yoshli maktab o‘quvchilari ishtirok etib, O‘zbekiston o‘quvchilari so‘nggi o‘ntalikka kirdi.

2022-yil o‘tkazilgan tadqiqotda, asosiy e’tibor matematik savodxonlikka qaratilib, tadqiqotga o‘qish savodxonligi va tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha testlar ham kiritilgan. Ushbu tadqiqot natijalaridan qisqacha hulosani quyida havola etamiz.

Ta’lim tizimining xususiyatlari (ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, ta’lim siyosati) IHTTga a’zo bo‘lmagan mamlakatlarda o‘quvchilarning matematika ko‘rsatkichlariga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatdi. IHTT a’zosi bo‘lgan mamlakatlarda ta’lim tizimi xususiyatlarining ta’siri unchalik katta emas, chunki ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar o‘xhash. (O‘zbekiston IHTT a’zosi emas).

Muayyan chegaragacha (o‘n yillik o‘qish uchun har bir o‘quvchi uchun 75 000 dollargacha (XQP)) ta’lim xarajatlari va ta’lim yutuqlari o‘rtasida ijobjiy bog‘liqlik

mavjud: mamlakat ta’limga qancha ko‘p mablag‘ sarflasa, natija shunchalik yaxshi bo‘ladi.

Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ota-onalarning ta’lim darajasi va o‘quvchilarning matematikadagi yutuqlari o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik ham aniqlandi. Badavlat oilalarning bolalari yaxshiroq natija qayd etdi. 35–44 yoshdagি aholisi ko‘proq oliv ma’lumotga ega bo‘lgan mamlakatlar yaxshi natijalarini ko‘rsatdi.

Bolalarni turli o‘quv dasturlariga erta yo‘naltiradigan mamlakatlarda bolaning ijtimoiyiqtisodiy holati va ularning o‘quv natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik chiqurlashdi.

Maktabgacha ta’lim olgan bolalar maktabda yaxshiroq o‘qimoqda. Yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarda maktablar bolalarga uy vazifalarini bajarishlari uchun joy va bolalarga yordam berish uchun o‘qituvchilar bilan ta’minlaydi.

Ota-onalarning farzandi ta’lim olishida ishtirok etishi, farzandlarining bilim olishiga qiziqishi bolalarning o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli qurilmalardan o‘quv maqsadlarida o‘rtacha (kuniga bir soatgacha) foydalanish, shuningdek, ularni hordiq chiqarish uchun me’yorida ishlatalish bolalarning o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [5].

Xulosa

PISA (Xalqaro Talabalarni Baxolash Dasturi) – bu nafaqat o‘qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan shug‘ullanuvchi dasturdir. Uning asosiy maqsadi – o‘quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda, ya’ni kundalik hayotda uchraydigan real muammolarni hal qilishda qanchalik samarali qo’llay olishlarini aniqlashdir. Bu dastur o‘quvchilarning faqatgina nazariy bilim darajasini emas, balki ular hayotiy vaziyatlarga to‘g‘ri yondashib, samarali echim topish ko‘nikmalarini ham baholaydi. PISA doirasida o‘quvchilar faqat ma’lum bir predmet doirasida o‘z bilimlarini namoyish etish bilan cheklanib qolmay, balki o‘z fikrlash qobiliyatini, mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini va qiyin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini namoyish etadi. PISA dasturi orqali maktab ta’limining sifatiga baho beriladi va shu asosda ta’lim tizimlarini takomillashtirish uchun zarur choralar ko‘riladi. Bu dastur shuni ko‘rsatadi, zamonaviy ta’lim faqat yod olishga asoslanib qolmay, balki o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, analitik va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. "Ta’lim sifatini baholash jarayonini PISA xalqaro dasturi talablari asosida tashkil etish yo’llari" maqola Kurbanniyazov Sh. K., Alliyorova X
2. <http://nambilog.zn.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 997-son Qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" gi PF-5712-som farmoni.
5. D. Melikoziyev. Theoretical aspects of the application of the PISA international assessment program to the national education system. Society and innovations. Special Issue – 06 (2023) / ISSN 2181-1415. –P 438-446

